

XRISTIANLIK DINI UNING VUJUDGA KELISHI VA TARIXI

*TAFU “Tarix va filologiya”
yo’nalishi III bosqich talabasi
Amandullayeva Gulnigor
gamandullayeva@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada, Xristianlik — dunyodagi eng yirik monoteistik dinlardan biri bo‘lib, milodiy I asrda Falastin hududida Iso Masihning ta’limotiga asoslanib vujudga kelgan. Din nafaqat Rim imperiyasi va undan tashqariga ham keng tarqaldi. Xristianlikning asosiy g‘oyasi — insoniyatni najotga yetkazuvchi Iso Masihga bo‘lgan ishonchdir. U tarix davomida Yevropa, Amerika va boshqa mintaqalarda madaniyat, san’at va falsafaning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: Xristianlik, Iso Masih, Injil, Rim imperiyasi, e’tiqod, cherkov, tarix, din.

Аннотация

В этой статье рассматривается христианство — одна из крупнейших монотеистических религий мира, возникшая в I веке н. э. в Палестине на основе учения Иисуса Христа. Религия получила широкое распространение не только в Римской империи, но и за её пределами. Основная идея христианства — вера в Иисуса Христа, ведущего человечество к спасению. На протяжении всей истории оно оказывало большое влияние на формирование культуры, искусства и философии в Европе, Америке и других регионах.

Ключевые слова: христианство, Иисус Христос, Библия, Римская империя, вера, церковь, история, религия.

Kirish

Dunyo miqyosida qancha millat va elatlar bo‘lsa, ularning kelib chiqish tarixi bilan bir-biridan farq qiladi. mavjud. Shu qatorda har bir dining kelib chiqish sababi va vazifasi o‘ziga xosdir. Din asosan insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash va hayotda qanday yashash kerakligini o‘rgatuvchi qo‘llanmaga o‘xshaydi. Dinni to‘g‘ri o‘rganmaslik uni to‘g‘ri tahlil qila olmaslik natijasida qarama-qarshiliklar hattoki bu holat, ikki tomon o‘rtasida ziddiyatli urush holatiga olib kelmoqda. Bunga tarix ham guvohdir. Har qanday din begunoh insonlarning qonini to‘kishga yoki urish qilishga da’vat etmaydi. Har bir davrda turli xalqlar o‘z dunyoqarashi, qadriyatlarini va hayot falsafasini ifoda etuvchi diniy tizimlarni yaratgan. Shu jihatdan olganda, **xristianlik** — insoniyat tarixidagi eng yirik va eng ta’sirli dinlardan biridir. U ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida dunyo tamadduni, ma’naviy hayot, san’at va siyosiy tafakkur taraqqiyotiga

beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. Xristianlik dini o'rta asrlar davomida Yevropa hayotining barcha jabhalariga — siyosat, ta'lim, me'morchilik, adabiyot va san'atga — chuqur ta'sir o'tkazdi. Diniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar jamiyatning ma'naviy hayotini belgilab berdi. Rim papasi rahbarligidagi katolik cherkovi yevropalik xalqlarning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasida katta o'rin tutgan. Shu bilan birga, xristianlik o'z ichida turli yo'nalishlarga bo'lingan: **katoliklik**, **pravoslavlik** va keyinchalik **protestantlik**.

Tarix davomida xristianlik insoniyat tafakkurida chuqur iz qoldirdi. U o'z ta'limoti orqali insonparvarlik, mehr, bag'rikenglik va kechirimlilik g'oyalarini targ'ib qildi. Bugungi kunda ham xristianlik dunyo miqyosida eng ko'p e'tiqod qilinadigan dinlardan biri bo'lib, insoniyatning ma'naviy birligini, tinchlik va adolat tamoyillarini ilgari surishda davom etmoqda.

Xristianlik dini Islom Buddaviylik dinlar singari dunyo tan olgan dinlar qatoriga kiradi va faqat boshqa dinlardan farqi bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni qariyb dunyoning uchdan bir qismiga to'g'ri keladi ya'ni 1 mlrd 600 mln tashkil etadi. Din kishilarning g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdan yuzaga kelgan.

"Din" so'zi arab tilidan olingan bo'lib o'zbek tilida tarjima qilinganida "ishonch", "ishonmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Din azaldan inson va jamiyat hayotining ma'naviy asosi, poydevori bo'lib xizmat qiladi. Diniy ongning ibtidosida "yaxshilik va yomonlik", "ezgulik va yovuzlik", "adolat va adolatsizlik" kabi axloqiy kategoriyalarning dastlabki elementlari shakllangani din kishilik jamoasining mazkur kategoriyalar atrofida birlashtira olgani bois unda turli xil dunyoqarash, integrativ, regulativ, kompensatorlik va boshqa funksiyalar mustahkamlandi¹. Hozirgi kunda kelib din ijtimoiy siyosiy vaziyatlarda ham o'z o'rniga ega bo'lgan va ba'zi mamlakatlarning asosiy qonunlariga aylangan. Diniy ongning o'zaro bog'liq va nisbatan mustaqil ikki bosqichga bo'linadi. Bular diniy psixologiya va diniy ideologiyadir. Diniy psixologiya-kishilarning diniy his-tuyg'ulari odatlari, an'analari va kayfiyatlarining majmui. Diniy ideologiya esa diniy tashkilotlar orqali malakali diniy shaxslar targ'ib etadigan turli diniy g'oyalarning muayyan tizimidir. E'tiqod tushunchasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, e'tiqod (ishonch yoki iymon) - muayyan maqsad, g'oya, ta'limot, yoki qadriyatning to'g'riligiga bo'lgan qat'iy ishonch hamda shu asosda shakllangan tafakkur tarzi.² Inson vujudga kelibdiki doimo qanday yaralganligiga qiziqib kelmoqda. Arxeologik qazishmalardayam insonlar turli davrlarda turli xil dinlarga sig'inishganligini ko'rishimiz mumkin va bulardan Zardushtiylik dini keyinchalik Buddiizm Iudaizm Xristianlik va Islom. Xristianlik ya'ni Nasroniylik Yahudiylik dinidan mustaqil din sifatida ajralib chiqqan va jahon dinlaridan biriga aylangan.

¹Norbekov-Dinshunoslik asoslari o'quv qo'llanmasi – Toshkent 2007- 12-13-bet

² Dinshunoslik bo'yicha//Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti//Toshkent 2019y 37bet

Iso Masihning hayot faoliyati to'g'risidagi diniy rivoyatlarning qisqacha bayoni shundan iboratki, Yevangelialarda qayd etilgan Isoning hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarda noaniq fikrlar va manbalar mavjud. Masalan bularda qayd etilishicha huvoriy Matfel o'z yevangeliasida Iso shajarasini, Dovud , Solomon va Ibrohim bilan bog'lashga harakat qilgan. Havoriy Luka Iso Dovudning yigirma sakkizinch avlodi ekanligini gapirib o'tgan. Mazkur dalilni isbotlash juda qiyin, chunki Dovud tarixiy manbalariga ko'ra, miloddan avvalgi X asrda yashagan.(ming yil davomida ularning o'rtasida bor-yo'g'i yigirma sakkizta avlod o'tishi juda g'alati hol). Iso Masihning tarixini o'rganish ma'lum bir darajada qiyin kechgan. Shuningdek ma'lumotlar ozginasi saqlanib qolingan.

Xristianlik dini vujudga kelishi uzoq tarixga ega. Xristianlik milodiy I asrda Rim imperiyasining mustamlakasi bo'lgan Falastinda (Galileya) vujudga kelgan."Xristianlik" iborasi qadimgi yahudiy tilidagi "mashiach" so'zining grek tiliga tarjimasida "xristos" ya'ni "muqaddas yog' surtilgan", "messiya" (mahdiy) degan ma'noni anglatadi. "Masix" ya'ni "Xristos" so'zining ma'nosi "Xudo tanlagan" "Xudo siylagan" "Xaloskor" ma'nolarini anglatgan. Xristian so'zi yunoncha bo'lib mazmuni "Iyso Masix yo'lidan yuruvchi kishi" demakdir. Mazkur dinining nomi ham ana shu- Xristian, masihchi so'zidab olingan. Iso alayxissalom yaxudiy millatiga mansub bo'lib taxminan milodiy 1-33 yillarda Falastin hozirgi Isroilda yashab o'tgan Milodiy yil hisobi ham ana shu Iso Masihning tug'ilgan sanasidan hisoblangan.³ Milodiy I asrda Falastin provinsiya(viloyat) sifatida Rim imperiyasining tarkibida bo'lgan. Boshqa mustamlakalar singari yahudiylar ham zulmga uchragan va buning natijasida chirigan imperiyani yo'q qiladigan adolatsizlikka qarshi ilohiy podshohlik quradigan xaloskor-messiya (mahdiy) to'g'risidagi g'oyalar vujudga kela boshlagan. Rim imperiyasida nasroniylikning g'alaba qozonishdagi tarixdagi eng ajoyib madaniy inqiloblardan biri hisoblanadi. Yangi dinning g'alabasi g'ayrioddiydir. Chunki, u targ'ib qilingan diniy qadiryatlarga zid kelgan. Buyuk butparast faylasuflar tomonidan yaxshi hayot va boylik bu dunyodan izlash kerak deb o'rgantganlar. "Sieze the day" ya'ni "bu kunni ushla" bu bilan ertangi kunga kafolat yo'q o'limdan keyingi hayolli hayotdan umid yo'q degan g'oyallarni ilgari surishgan.⁴ Ummuman olganda Iso Masihni tarixini o'rganish judayam mushkul chunki u hech narsa yozmagan. Biz Isoni faqat boshqalarning "Yangi Ahddagi Injil" mualliflarining yozuvlari orqali ko'rishimiz mumkin. Lekin uni shaxsan tanigan insonlar tomonidan yozilgani yo'q, ammo birinchi nasroniy jamoalarni tashkil etgan Sankt-Pol erta imonga kirganlar tomonidan yozib qoldirgan. Birinch masihiylar Isoning o'limidan yigirma yil o'tgach o'zlarining xotiralari va tassurotlari haqida hech narsa yozmaganlar. Chunki ular uning yaqin orada g'alaba va shon-shuhratda qaytishini kutganlar. "Yangi Ahd"ning eng qadimiy

³ Dinshunoslik bo'yicha//Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti//Toshkent 2019y 73bet

⁴ The Western Experience//Fifth edition -182page

qismlari Pauline Epistles va Paul Isoni hech qachon shaxsan tanimagan. "Yangi Ahd"ning eng yosh kitoblari Avliyo Yuhannoga ko'ra "Xushxabar" va "Vahiy kitobi" ehtimol bizning eramizning 90-yillariga to'g'ri keladi. Xattoki, "Yangi Ahd"ning kitob mualliflari ham xronologik tartibda Isoning butun hayotiga emas, balki diniy xabar va mo'jizalariga e'tibor berishadi. Natijada Iso Masihning tarjima holini to'liq yozib bo'lmaydi. Iso Masihning yoshlik va yoshligidagi hayoti haqida deyarli asosiy manbalar yo'q. Ancha vaqt o'tganidan so'ng uning izdoshlari eslashlaricha yoki turli xil rivoyatlarga ko'ra farishta Gavriil(Jabroil) kambag'al qiz Mariya (Mariyam)ga Alloh unga xaloskor-messiyaning onasi bo'lishni ato etganligi haqida xabar bergan. U "Shoh Hirod davrida" Yusuf ismli inson bilan unashtirilgan bo'ladi ammo turmushga chiqmagan.⁵ Bokira Maryamdan Iso Masih dunyoga keladi. Iso Masihning hayoti va faoliyati Bibliya(Injil)ning "Yangi Ahd" qismi, ya'ni yevangelialarda (grek tilida enaungelion –yaxshi xabar degan ma'noni anglatadi) batafsil bayon qilingan. Iso 30 yoshga kirganidan keyin Iordan daryosi bo'yida Ioan Cho'qintiruvchidan cho'qintirishni qabul qilgan va da'vatkorlik faoliyatini boshlagan. Unga Tavrot va Zaburdan keyingi kitob ya'ni uchinchi ilohiy kitob bo'lgan Injil nozil qilingan. Bu dinni Islomda nasroniylik deyilishi Iso Masihning tug'ilgan yeri Nosira nomi bilan bog'liq. Unga ergashganlarni nasroniylar deya atashganlar. Guruh asosini Isoning 12 shogirdi-apostollar (grek apostols-vakil yoki arabchada havariy degan ma'nolari anglatadi). Iso va uning izdoshlari bilan birga Falastin bo'ylab sayohat qilib, insonlarni yakka xudolikka da'vat etib kasallarga yordam berib mo'jizalar ko'rsatgan. Iso insonlarga yakka xudolikka sig'inishlariga, yerdagi insonlarni xudo yaratgangeligini , xudo yerda iloyih podsholik o'rnatish to'g'risidagi xabarni yetkazish uchun yuborilganligi ya'ni insonlar va xudo o'rtasida elchi (payg'ambar) qilinganligini xabar qiladi va bu ta'limotga ergashishlariga da'vat etadi. O'zining axloqiy tamoyillari va tog'dagi vazida u Xudoning marhamati kambag'alarga tinchlik o'rnatuvchilarga adolat izlovchilardan bo'lishi kerakligi targ'ib qilgan. U chinakam taqvodorligi va ibodatlari bilan jamiyatda e'tiborni qozonish uchun harakat qilish emas, balki ruhiy harakat ya'ni axloqni ko'rsatish kerak ekanligini o'rgatgan. Iso Masih 30 yoshdan boshlab 3 yil davomida payg'ambarlik faoliyatini olib borib, insonlarni dinga targ'ib qilishiga qaramasdan kutilgan natija bermaydi ya'ni insonlarning ozchiligi ergashadi. Bunga yana bir sabab iudaizm (Yahudiy dini — yahudiy xalqi orasida miloddan avvalgi 2-ming yillikda paydo bo'lgan diniy, milliy va etimologik dunyoqarash. Mavjud monoteistiklarning eng qadimiysidir) ta'limotiga ummuman mos kelmasligi va muhim masalalarda unga qarshi turganligi sababli Quddus kohinlari tomonidan juda qattiq qarshilikka sabab bo'lgan va ular Iso Masihni sudga berishga qaror qilishda. Rim impeiyasi va kohinlar tomonidan unga yolg'onchi va soxta madhiylikda ayblab ta'qib

⁵ The Western Experience//Fifth edition -186page

qilganlar. Natijada yahudiy sudi tomonidan Iso Masihga hukum o'qiladi ya'ni mavjud dini qoralash badnom qilganligi uchun o'sha davrda tan olingan va amalda bo'lgan qonun xochga tortib o'ldirishga hukum qilingan. Iso Masih bilan birgalikda uchta qaroqchi ham qatl qilinishi belgilandi. O'sha davrda rasman tan olingan an'anaga binoan qatl etiladiganlarda birini kechirishlari ham mumkin bo'lgan. Ammo shunda olamon qaroqchi Varravani tanlab Iso Masihdan yuz o'girib o'limini tomosha qilishadi. Yana boshqa diniy rivoyatlarga ko'ra, Quddus ahli Isoni elchiligiga va odamzotning xaloskori deb e'tirof etmay, uni toshbo'ron qilingan. Iso Galgofa tog'ida qiynab o'ldiriladi. Uni juda katta yog'ochga (xochga (sanam)) ga tiriklayin mixlab tashlaydilar. Rivoyat qilishlaricha, o'limning uchunchi kunida Iso mo'jizaviy qayta tirilib, birmuncha vaqt ya'ni qiriq kun davomida o'z shogirlari bilan birga bo'lib qirqinchi kuni Iso shogirlariga oxiratda yana yerga qaytishini aytib, osmonga ko'tarilib ketgan deya rivoyat qilinadi.⁶

Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi eramizning IV asr boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshdi. 325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Lisiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikey shahrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. Bu soborlarda xristianlik ta'limotining asoslari qabul qilindi va bu asoslar 12 qismda ifodalandi.

Birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida so'z yuritiladi.

Ikkinchi qismda Xudoning o'g'li Isus Xristosga imon keltirish haqida so'z boradi.

Uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida so'z yuritilib, unga ko'ra, Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirgan.

To'rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o'limi haqida so'z ketadi. Bu gunohlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb e'tiqod qilinadi.

Beshinchi qismda shuni ko'rishimiz mumkinki Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi haqidagi aqida keladi.

Oltinchi qismda Isoning meroji haqida so'z yuritiladi.

Yettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba erga qaytishi) haqida so'z yuritiladi.

Sakkinchi qism Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasidadir.

To'qqizinchi qism cherkovga munosabat haqida.

O'n birinchi qism o'lganlarning ommaviy tirilishi haqida.

⁶ A.V. Norbekov. *Dinshunoslik asoslari* o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: O'zbekiston Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi, 2007. 97bet

O'n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so'z yuritiladi.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning ta'limoti katta rol o'ynadi. V asr bo'sag'asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ'ib qila boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug' va qudratli yaratuvchining irodasi yashiringan.

Avgustinning taqdir haqidagi ta'limotida aytilishicha, Xudoga iymon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o'rin egallashi mumkin. Chunki imon taqdir taqozosidir.

Xristianlikdagi oqimlar. Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida etakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istanbul patriarxi Fetiylar orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi⁷.

Xristianlikda asosiy uchta oqim bor va bular:

1. Protestant;
2. [Katolik](#);
3. [Pravoslav](#).

Protestant bu- [lotincha](#): *protestatio* norozi bo'lish, kelishmaslik— [xristianlikdagi](#) 3ta asosiy oqimidan biri. [Reformatsiya](#) davri ya'ni XVI asrda **katolitsizmdan** ajralib chiqqan. Protestantizm asoschilari — vositachilik rolini inkor etadi. Protestantizm da ruxoniylar bilan oddiy dindorlar farqlanmaydi. Murakkab cherkov iyerarxiyasi yo'q, toat-ibodat soddalashtirilgan, monaxlar bo'lmaydi, ruhoniylarning oila qurishi man etilmaydi. Protestantizm, asosan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlarida, Niderlandiya, Shveysariya, Avstraliya, Kanada, Boltiqbo'yi mamlakatlari Estoniya, Latviyada tarqalgan. Protestantlarning umumiy soni 750 mln. ga yaqin.⁸

Iegova shohidlari- xristianlikning protestan yo'nalishidagi diniy tashkilot a'zolari. 1931 yildan unga "Iegova shohidlari tashkiloti" degan rasmiy nom berilgan.

Katolik bu-[lotincha](#): *catholicismus* va [grekcha](#): *καθολικός* - katholikos - umumiy, asosiy— [xristianlikdagi](#) yana bir asosiy oqimlardan biri. Katolitsizm diniy ta'limot va cherkov tashkiloti sifatida 1054 yilda cherkovlarning bo'linishidan keyin vujudga keldi. 16-asrda Katolitsizmdan [protestantizm](#) ajralib chiqdi. Katolik cherkovi qat'iy markazlashgan, yagona markazi Vatikan, uning birdan-bir boshlig'i — [Rim](#)

⁷ fayllar.org

⁸ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-y

papasi. Katolitsizm xristianlikning asosiy aqida va marosimlarini e'tirof etadi. Ayni vaqtda o'ziga xos aqidalari ham bor. **Katolitsizm muqaddas ruh faqat xudo-otadan emas, balki xudo-o'g'ildan ham paydo bo'lgan**, Rim papasi Isoning yerdagi noibi, u din va axloq ishlarida gunoh qilmaydi, uning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan yuqori turadi deb hisoblaydi. Katolitsizm faqat muqaddas yozuv (Bibliya)ni emas, balki muqaddas rivoyatni ham diniy ta'limotning manbai deb biladi. Katolitsizm, pravoslaviyedan farqli ravishda, muqaddas rivoyatga katolik cherkovlari jahon soborlarining qarorlari va papaning fikrlari ham qo'shilgan. Ruhoniylarning uylanmasligi, Bibi Maryam bokira bo'la turib Isoni tug'ishi, uning jismi osmonga ko'tarilib ketishi aqidasini e'tirof etish, e'tiqod timsoliga a'rof aqidasini qo'shish Katolitsizmga xos xususiyatdir. Tereza ona (1910-1997) – asl ismi Agnes Gondje Boyadjij bo'lgan. Bu ayol katoliklarning eng mashhur rohibasi bo'lgan. “Mehribonlik” hayriya tashkilotining asoschisidir.

Katolitsizm uchun marosimlarni tantanali o'tkazish, jaf o chekkanlarni, avliyolarni izzat-hurmat qilish harakterlidir. Katolitsizm ibodat asrlar davomida lotin tilida olib borilgan, II Vatikan sobori (1962—1965) ibodatni milliy tillardao'tkazishga ruxsat bergan. Katolitsizmga ko'proq Foma Akvinskiyning diniy qarashlari asos qilib olingan. Katolitsizm jahon siyosatida muayyan rol o'ynaydi. Katolik cherkov ko'p sonli ruhoniylar, monaxlik ordenlari, klerikal partiyalar, missionerlik tashkilotlari va boshqalarga ega. Cherkov statistikasiga ko'ra, katoliklar 900 mln.ga yaqin kishi jamiyatini tashkilotadi. Misol uchun bir qancha mamlakatlar xususan: Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Avstriya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida Katolitsizm hukmron diniy ta'limot hisoblanadi haligacha. Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va Kubada katoliklar dinga ishonuvchi aholining ko'pchiligini tashkil etadi. 20-asrning 60-y.laridan Katolitsizm aqidalari, marosimlari, tashkilotlari va siyosati zamon talablariga moslashtirilmoqda.

Pravoslavlik bu- **rus tilidan** olingan bo'lib- chin e'tiqod degani bo'lib bu ham bir oqimlardan biri hisoblanadi. 1054-yilda Xristian dini oqimlarga bo'linib ketishi natijasida shakllangan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biridir. Asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Bolqon mamlakatlarida keng tarqalgan pravoslavlikka dunyoda taxminan 215 million kishi e'tiqod qiladi. Pravoslavlikda katoliklikda bo'lganidek yagona markaz hozir ham yo'q. Bugungi kunda dunyoda 15 ta avtokefal (mustaqil) va 2 ta avtonom maqomga ega pravoslav cherkovlari mavjud. Ular umumcherkov ahamiyatiga oid masalalarni hal etishda bir-birlari bilan aloqada bo'lib turadilar. Pravoslavlik diniy ta'limoti “Muqaddas yozuv” (“Injil”) va “Muqaddas rivoyatlar”ga asoslangan. Bu aqidalarni pravoslav cherkovlari ilohiy xarakterga ega, abadiy va o'zgarmas deb bilishadi. “Muqaddas uchlik”- xudoning bir vaqtning o'zida ham yagona, ham uch xil ko'rinish ya'ni: Ota-xudo, O'g'il-xudo-Iso va Muqaddas Ruhda namoyon bo'ladi, deb ishonish, insonni tug'ma gunohkor deb bilish, Isoning inson

qiyofasiga kirib, o'z ummatlarini gunohdan xalos etish uchun o'zini qurbon qilganini tan olish, oxiratga va unda qayta tirilishga e'tiqod qilish, cherkovning xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi ekaniga ishonish pravoslavlik diniy ta'limotining asosini tashkil etadi. Pravoslavlikda diakon, yepiskop, mitropolit, patriarx kabi diniy rutbalar mavjud. Xristianlikning 7 sirli marosimi pravoslavlikning ham asosini tashkil etadi. Faqat ularning bajarilishida katoliklar bilan pravoslavlar orasida ba'zi farqlar bor. Pravoslavlikda: - yangi tug'ilgan bola cho'qintirilayotganda suvga botirib olinadi; - muqaddas moy surtish cho'qintirishdan so'ng ketma-ket mahalliy ruhoniylar tomonidan bajariladi; - oddiy insonlar va ruhoniylar bir xil - kvasli non va vino bilan totinadilar; - nikoh marosimi cherkovda, ruhoniylar tomonidan amalga oshiriladi. Er-xotin faqatgina xiyonat sababli ajrashishlari mumkin. Nikohni faqat cherkov bekor qila oladi; - xristianlikning boshqa konfessiyalaridan farqli ravishda "qora" va "oq" ruhoniylar farqlanadi. Jumladan, "qora" ruhoniylarda "tselibat", ya'ni uylanmaslik amaliyoti mavjud; - tavba marosimida katoliklikdan farqli ravishda tavba qiluvchi va ruhoniylar yuzma-yuz o'tirishadi. Qolgan marosimlarda sezilarli farq kuzatilmaydi.

Pravoslavlikda ibodat asosan mahalliy tilda olib boriladi. Rojdestvo, Pasxa kabi umumxristian bayramlari pravoslavlikning ham asosiy marosimlari hisoblanadi. Cherkovlar bo'linganidan so'ng katoliklar tomonidan qabul qilingan aqidalarni pravoslavlar xato, "Muqaddas yozuv" va "Muqaddas rivoyatlar"ga zid, deb hisoblaydilar. Shuningdek, cherkovlar bo'linishidan so'ng katoliklar tomonidan qabul qilingan bayramlarni ham pravoslavlar nishonlamaydilar. Rus pravoslav cherkovi - Moskva patriarxiyasi dunyodagi eng katta mustaqil (avtokefal) pravoslav cherkovidir.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish joiz-ki, har bir dinning kelib chiqishi va uning yoyilish tarixi mavjud. Bunday jarayon, o'z navbatida, uzoq muddat talab qiladi va qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Albatta, keyinchalik dinni qabul qilingandan keyin ya'ni asrlar o'tib insonlarda turli xil qarama-qarshi fikrlar paydo bo'ladi. Misol uchun, XX asrga kelib zamonaviy jamiyatda "Ateizm" ya'ni yunonchadan olingan bo'lib "inkor etish". Biror bir dinga e'tiqod qilmaslik qo'llab-quvvatlamaslik hattoki qarshi chiqishlar g'oyalari paydo bo'la boshlanadi. Buni zamonaviy tilda "erkinlik" deya nom berildi. Bu faqat insonlarga jamiyatga ta'sir qila qolmay davlatlarga ham ta'sir qila boshladi. Laisizm - davlat va jamiyatni dindon ozod qilish va dunyoviylikni ilgari surish g'oyasini targ'ib qilina boshlandi. Ingliz faylasufi, tarixshunos olimi hamda davlat arbobi Frensis Bekon shunday fikrni ilgari surgan: "Atteizm – yupqa muz qatlamiga o'xshaydi, undan yakka inson o'tsa bo'ladi ammo, butun boshli xalqni olib o'tib bo'lmaydi ". Har bir yillar davomida vaziyatga yoki davrga qarab o'zgartirilib kelingan. Injil kitobini ham turli davrdagi turli insonlar tomonidan o'zgartirilish natijasida turli qarama-qarshi fikrlar vujudga keldi. Dini o'z manfatlari yo'lida foydalanila boshlandi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. A.V. Norbekov. *Dinshunoslik asoslari* o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: O‘zbekiston Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi, 2007. 97-bet
2. The Western Experience//Fifth edition//1991y//182-183page
3. Dinshunoslik//Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti//Toshkent 2019, 37-38bet.
4. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-y
5. Vikipediya, ochiq ensiklopediya
6. fayllar.org

